

## 2019-yil yanvar–mart oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi jamiyat farovonligini aks ettiruvchi ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Resurslar sarfini tejoychi samarali innovatsion iqtisodiyotni barpo etish jarayonida xizmatlar sohasi alohida o'rin tutadi, chunki u, tovar ishlab chiqarish bilan taqqoslaganda, materiallar sarfini kamligiga, xarajatlarni tez qoplanishi va yuqori daromadlilikka ega.

2019-yil 1-aprel holatiga ko'ra Toshkent shahrida 54,0 mingta xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar qayd etilib, ularning umumiy (74,7 ming birlik) sonidagi ulushi 72,4 % ni tashkil etdi. O'tgan yilga nisbatan ularning soni 20,2 % ga oshdi.




**Xizmatlar sohasida faoliyat  
ko'rsatayo'tgan korxonalar va  
tashkilotlar -  
54,0 ming birlik.**

**Umumiy sonidagi ulushi -  
72,4 %**

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 45 mingtaga yaqini kichik biznes sub'ektlari hisoblanib, 2019-yil 1-aprel holatiga ularning ulushi 83,1 % ni tashkil etdi.

**2019-yil 1-aprel holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi, %**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



2019-yil 1-aprel holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida eng yuqori ulushni savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar (32,0 %) tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 9,9 % ni tashkil etdi.


Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 5,7 % ga yetdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar ulushi 5,2 % ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash sohasida faoliyat yuritayotgan va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,6 % ni tashkil etdi.

**2019-yil 1-aprel holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %**

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar–mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2 361,3 mlrd. so'mga oshib,


12 989,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 113,7 % ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan  
bozor xizmatlarining tarkibi,**  
(2019-yil yanvar–mart oylarida %)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida moliyaviy xizmatlar 28,0 % ulush bilan yetakchi o'rinni egallaydi. 2018-yil yanvar–mart oylariga nisbatan ularning hajmi 1 109,8 mlrd. so'mga oshdi.

### 2018 yil yanvar–mart oylariga nisbatan ayrim xizmat turlari hajmining oshishi, mlrd.so'm



Bundan tashqari, eng katta ulush moliyaviy xizmatlar, savdo xizmatlari, aloqa va axborotlashtirish, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarda, shuningdek, ta'lim sohasidagi xizmatlarda kuzatildi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

(2019-yil yanvar–mart oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>12 989,9</b>	<b>113,7</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	1 118,5	99,8
Moliyaviy xizmatlar	3 636,3	140,5
Transport xizmatlari	1 552,4	104,7
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	910,7	101,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	485,0	103,0
Savdo xizmatlari	3 280,9	102,7
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	574,2	103,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	683,2	120,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	235,0	124,9
Ijara xizmatlari	244,1	103,6
Kompyuter va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	66,0	109,8
Shaxsiy xizmatlar	169,3	112,9
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	358,6	125,6
Boshqa xizmatlar	586,4	102,3

Olib borilayotgan kredit siyosati bo'yicha islohotlarning davom ettirilishi moliyaviy xizmatlarning o'sishiga imkoniyat yaratdi. 2019-yil yanvar–mart oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 140,5 %ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori o'sish sur'atlari me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (125,6 %), sog'liqni saqlash sohasida (124,9 %) va ta'lim sohasidagi xizmatlar (120,8 %) qayd etildi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari

(2019-yil yanvar–mart oylarida, %)



Respublikamizning iqtisodiy rivojlanishida transport muhim rol o'ynaydi. Transport xizmatlari umumiy hajmining qariyb yarmi avtomobil transportida yuklar va yo'lovchilarni tashish xizmatlari hisobiga to'g'ri keladi.


Avtomobil transport turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning manevrlligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli eng ko'p talabga ega hisoblanadi. Transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transportining ulushi 58,7 % ni tashkil etadi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.


2019-yil yanvar–mart oylarida savdo xizmatlari hajmi 3 280,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 25,3 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 392,5 mlrd. so'mga oshdi.


### Savdo xizmatlari - 100,0 %



Avtomobillar va motosikllarning ulgurji va chakana savdosi, jumladan, avtomobillar va motosikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar



Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari)



Avtomobillar va motosikllar saccosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar




Savdo xizmatlari tarkibida ulgurji savdo xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) katta salmoqqa ega bo'lib, 2019-yil yanvar–mart oylarida uning ulushi 47,1 %ni tashkil etdi.

Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar ulushi 45,6 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiy hajmida 7,3 % ni tashkil etdi.

**Tumanlar kesimida savdo xizmatlarining hajmi va o'sish sur'atlari**  
*(2019-yil yanvar–mart oylarida)*



Savdo xizmatlarining eng katta hajmi Chilonzor (487,2 mlrd. so'm), Shayxontohur (358,7 mlrd. so'm), Uchtepa (346,4 mlrd. so'm) Yakkasaroy (325,7 mlrd. so'm), va Mirobod (325,7 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.


Savdo xizmatlari bo'yicha eng past ko'rsatkichlar Olmazor tumanida kuzatildi. Ushbu tumandagi savdo xizmatlari hajmi 168,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Bugungi kunda nafaqat savdo va transport kabi doimiy yangilanib borayotgan an'anaviy faoliyat turlari etakchi o'rinlarni egallamoqda, balki tez o'sib borayotgan bilimga asoslangan biznes va ijtimoiy va madaniy xizmatlar ham egallaydi.

2019-yil yanvar–mart oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 3 636,3 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 140,5 % ni tashkil etdi.

### Tumanlar kesimida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'atlari

(2019-yil yanvar–mart oylarida, %)




2018-yil yanvar–mart oylariga nisbatan moliyaviy xizmatlarning o'sishi Chilonzor (189,3 %), Mirzo Ulug'bek (160,7 %), Yashnobod (154,0 %) va Uchtepa (136,1 %) tumanlarda kuzatilmoqda.

Boshqa tumanlar bilan taqqoslaganda o'sish sur'atlari Olmazor (116,5 %) va Bektemir (117,7 %) tumanlarda sezilarli emas.

### Tumanlar kesimida umumiy xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi

(2019-yil yanvar–mart oylarida, %)



Tumanlar orasida ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida moliyaviy xizmatlarning eng katta ulushi Mirobod tumanida - 24,0 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, moliyaviy xizmatlar ulushining umumiy hajmida o'sishi Yashnobod (21,9 %), Yunusobod (20,5 %) va Mirzo Ulug'bek (12,2 %) tumanlarda qayd etildi.

Eng past ko'rsatkich Bektemir (0,02 %), Sergeli (0,1 %) va Olmazor (0,1 %) tumanlarida qayd etilgi.

Moliyaviy xizmatlarning o'sish omillari sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar hajmining o'sishi, jumladan, pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar hajmining o'sishi bilan izohlanadi. Ularning moliyaviy xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 91,1 % ni tashkil etdi.

Respublikaning moliyaviy-kredit tizimida innovatsion IT-texnologiyalarni joriy etish ushbu sohada ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ta'lim tizimining rivojlanishi O'zbekistondagi eng muhim ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, avvalo, inson ongi va fikrlashidagi ijobiy o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlaydi va uning ma'naviyatini yuksalishiga imkoniyat yaratadi.

2019-yil yanvar–mart oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 683,2 mlrd. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 20,8 % ni tashkil etdi.

### Ta'lim sohasidagi xizmatlar



**Xizmatlar hajmi**  
683,2 mlrd. sum



**O'sish sur'ati**  
120,8 %



Tumanlar orasida Mirzo Ulug'bek tumani etakchi o'rinni egallaydi. Ta'lim sohasidagi xizmatlarda uning ulushi 16,9 % ni tashkil etdi. Buning sababi, ta'lim muassasalarining katta qismi bu erda joylashganligidir. Mirzo Ulug'bek tumanida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 115,6 mlrd. so'mga yetdi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlarning yuqori o'sish sur'atlari Mirobod tumanida - 141,4 % ni tashkil etdi.

Bundan tashqari, ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'atlari Mirzo Ulug'bek (131,2 %), Yashnobod (122,3 %), Olmazor (121,3 %) va Uchtepa (120,6 %) tumanlarda qayd etildi.

### **Tumanlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'atlari**

*(2019-yil yanvar–mart oylarida, %)*

г. Ташкент - 120.0 %	
 Eng yuqori o'sish sur'ati	 Eng past o'sish sur'ati
Mirobod tumani - 141,4 %	Chilonzor tumani - 115,6 %
Mirzo Ulug'bek tumani - 131,2 %	Yakkasaroy tumani - 108,4 %
Yashnobod tumani - 122,3 %	Shayxontohur tumani - 108,2 %
Olmazor tumani - 121,3 %	Bektemir tumani - 106,1 %
Uchtepa tumani - 120,6 %	Sergeli tumani - 101,0 %
Yunusobod tumani - 117,1 %	

Eng past o'sish sur'atlari Sergeli tumani – 101,0 % qayd etildi.

Bugungi kunda o'quv jarayonining sifati va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod metodik materiallari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2018-yil yanvar–mart oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarining o'sish sur'ati 3,0 % ga o'sdi, hajmi esa 72,2 mlrd. so'mga oshdi va 485,0 mlrd. so'mga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ulushi 77,5 % bilan ustunlik qiladi. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 22,5 % ni tashkil etdi.

### **2019-yil yanvar–mart oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tarkibi, %**



Yashash va ovqatlanish xizmatlari bo'yicha eng katta hajm Yunusobod tumanida 129,3 mlrd. so'm qayd etildi, 2018-yil yanvar–mart oylariga nisbatan 21,5 mlrd. so'mga o'sish kuzatildi.

Eng kichik hajm esa Bektemir tumanida kuzatildi – 5,0 mlrd. so'm.

Harakatlar strategiyasiga muvofiq 2017-2021 yillarga mo'ljallangan ijtimoiy himoya qilish va fuqarolar sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.


Respublikada sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish doirasida aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning zamonaviy tizimini shakllantirishda muayyan natijalarga erishishga muvaffaq bo'ldi.

2019-yil yanvar–mart oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi 235,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Bektemir tumanida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi eng kichik (0,5 %) bo'lishiga qaramasdan, ularning o'sishi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,2 % ni tashkil etdi.

### Tumanlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'atlari

(2019-yil yanvar–mart oylarida, %)



**Tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**  
(2019-yil yanvar–mart oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Toshkent sh.</b>	<b>12 989,9</b>	<b>113,7</b>
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa tumani	675,6	106,8
Bektemir tumani	347,5	108,5
Yunusobod tumani	2 245,3	107,4
Mirzo Ulug'bek tumani	1 347,4	123,4
Mirobod tumani	2 059,7	112,3
Shayxontohur tumani	1 362,3	112,2
Olmazor tumani	619,0	106,0
Sergeli tumani	744,6	110,2
Yakkasaroy tumani	821,2	106,6
Yashnobod tumani	1 382,4	115,0
Chilonzor tumani	1 303,9	112,4
Tumandan tashqarida	80,9	112,8




Tumanning ijtimoiy-iqtisodiy holati ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasini aks ettiradi, shu jumladan xizmatlarni rivojlantirishga qaratilgan ishlab chiqarilgan yalpi tumaniy mahsulot hajmi (YaHM) xarakterlanadi va tumanning byudjet imkoniyatlari va pul oqimlarining hajmini belgilaydi.

2019-yil yanvar–mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi Yunusobod (2 245,3 mlrd. so'm) qayd etildi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan tuman bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati 107,4 % ni tashkil etdi.

### **Tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari**

*(2019-yil yanvar–mart oylarida, %)*




Shu bilan birga eng yuqori o'sish sur'atlari Mirzo Ulug'bek (123,4 %), Yashnobod (115,0 %) va Chilonzor (112,4 %) tumanlarda qayd etildi.

Uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Olmazor (106,0 %), Yakkasaroy (106,6 %) va Uchtepa (106,8 %) tumanlarida kuzatildi.

Tumanlar bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida eng yuqori ulushlarni Yunusobod (17,3 %), Mirobod (15,9 %), Yashnobod (10,6 %), Shayxontohur (10,5 %) va Mirzo Ulug'bek (10,4 %) tumanlari egallaydi.

### Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida tumanlarning ulushi

(2019-yil yanvar–mart oylarida, %)




Tumanlar o'rtasida eng kichik ulushlar Bektemir (2,7 %), Olmazor (4,8 %), Uchtepa (5,2 %) va Sergeli (5,7 %) tumanlarga to'g'ri keladi.

2019-yil yanvar–mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 5 162,1 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 111,6 % ni tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkich tumanlar o'rtasida Olmazor tumani 1 719,5 ming so'mdan Mirobod tumanida 15 067,2 ming so'mgacha oraliqni tashkil etadi.

### Tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar

(2019-yil yanvar–mart oylarida, ming so'm)



Bundan tashqari, aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli o'sishi Mirzo Ulug'bek (21,9 %), Yashnobod (12,2 %), Chilonzor (10,4 %), Mirobod (10,2 %) va Shayxontohur (9,9 %) tumanlarda kuzatildi.



O'tgan yilning shu davriga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 859,2 ming so'mga oshdi.

Nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Olmazor (104,1 %) va Yakkasaroy (105,1 %) tumanlarida kuzatildi.

Ko'plab xalqaro ekspertlarning fikriga ko'ra, xizmatlar sohasining jadal rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining zamonaviy tarkibiy qayta qurilishini muvaffaqiyatli yakunlash uchun zaruriy sharoitdir.

**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**

**71-230-88-15**

**71-230-88-25**